



ADVOKAT MUSTAQILLIGINI TA'MINLASH, SUD HUQUQNI MUHOFAAZA QILISH ORGANLARGA BAHU BERISH

Urunov Murodilloxon Xursanmurod o'g'li¹

¹Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti
4-kurs talabasi

G'ulomjonov Odiljon Raximjon o'g'li²

²Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi
yo'nalishi 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7146355>

ARTICLE INFO

Received: 30th September 2022

Accepted: 03rd October 2022

Online: 05th October 2022

KEY WORDS

advokat, sud, huquq, qonunlar, prinsiplar, fuqarolik.

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada asosan quyidagilar keltirib o'tilgan. Asosan Advokat mustaqilligini ta'minlash hamda sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi mustaqillik asoslaridan kelib chiqqan holda bu borada takliflar ilgari surilgan.

Advokat (lot. advocatus, advocare – yordamga chaqirish) – yuridik yordam ko'rsatuvchi shaxs. Jinoiyat ishlari bo'yicha surishtiruv, tergov harakatlari yuritilganda va sud majlisida, fuqaroviy ishlar sudda, xo'jalik nizolari xo'jalik sudlarida yoki ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar sudya yoxud vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) tomonidan ko'rilganda ishtirok etadi, qonunda belgilangan vakolatga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonunida (1996-yil 27-dekabr) ko'rsatilishicha, oliy yuridik ma'lumotli va belgilangan tartibda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya olgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasida Advokatura bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunida (1998-yil 25-dekabr) advokatlik faoliyati bilan

shug'ullanish huquqi, faoliyatining asosiy prinsiplari, advokat qasamyodi, vakolatlari, mustaqilligini ta'minlash, daxlsizligi, advokatlik faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmasligi va uning himoyalanihini ta'minlash, advokatning ijtimoiy himoyasi choralari va boshqa belgilab berilgan.

Advokat mustaqilligini ta'minlash asoslariga to'xtaladigan bo'lsak, bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida" gi Qonunning 4-moddasining birinchi qismida quyidagilar orqali advokatura o'z faoliyatini qonun ustuvorligi; mustaqillik; demokratik kabi prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu qonunimizda ham advokatning mustaqilligi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, advokatning daxlsizligi advokatning faoliyatini ta'minlash va vazifalarini samarali bajarish uchun davlat advokatning daxlsizligini kafolatlashi kerak. Xalqaro huquqqa muvofiq



advokatning daxlsizligi asosiysi inson huquqlaridan birini himoya qilish huquqini ta'minlash uchun aholiga huquqiy yordam ko'rsatish maqsadida advokatning inson huquqlari faoliyatining tashkiliy va huquqiy kafolatlari ko'rinishidagi chora-tadbirlar majmui hisoblanadi. Shu munosabat bilan jamiyatda advokatning roli to'g'risidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarga e'tibor qaratishimiz lozim. Masalan, bu Nyu-Yorkda 1990-yilda jinoyatlarning oldini olish bo'yicha BMT sakkizinchi Kongressi tomonidan qabul qilingan advokatlar roli, asosiy tamoyillari asosiy qoidalari, qolaversa Gavana shahrida bo'lib o'tgan jinoyatchi tomonidan sodir etilgan jinoyatni oldini olish uchun BMT Kongressi tomonidan qabul huquqshunoslar roli bilan bog'liq bo'lgan masala ko'rib chiqilgan.

Rossiya Federatsiya qonunchiligini o'rganish shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda Rossiya Federatsiya qonunchiligida advokatlik faoliyatining davlatning noto'g'ri aralashuvidan mustaqilligi kafolatlarni beruvchi qoidalar mavjud emas va bugungi kunda esa advokatga nisbatan barcha protsessual harakatlarni amalga oshirish jinoyat-protsessual qonunchiligining umumiy qoidalari bilan tartibga solinadi va advokatlik faoliyatining ommaviy xususiyatini hisobga oladigan qo'shimcha protsessual kafolatlarni nazarda tutmaydi. Ishni olib borayotgan advokat dastlabki tergovni olib boruvchi tergovchiga, surishtiruvchiga, prokurorga va boshqalar uchun noqulay bo'lgan holatlarda ish olib borishar ekan. Shu bois, "noqulay" advokatdan qutulishni istagan huquqni muhofaza qilish organlari unga "ta'sir" berishni boshlaganlar.

Shu munosabat bilan, advokat o'z faoliyatining huquqiy va tashkiliy

kafolatlari muhtoj. Rossiya Federatsiyasi qonunchiligidagi "Advokatlik faoliyati to'g'risida" gi yangi qonun doirasida amalga oshirilgan advokatning professional faoliyatiga aralashish yoki bu faoliyatni hech qanday tarzda taqiqlamaslik haqida aniq ma'lumot beradi. Ushbu yuqoridagi "Advokatlik faoliyati to'g'risida" qonunga ko'ra, Fuqarolik sohasidagi advokat o'zining professional faoliyatini amalga oshirishda u tomonidan bildirilgan fikr uchun intizomiy, fuqarolik, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi belgilangan. Qolaversa, advokatlardan, shuningdek advokatlik idoralarning boshqa xodimlaridan, Rossiya federatsiyasi subyektlarining advokatlik palatalaridan yoki Rossiya Federatsiyasining federal advokatlar palatasidan ma'lum bir ishda huquqiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq ma'lumotlarni talab qilishga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin. Advokatning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga yoki uning professional faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan oila a'zolariga tajovuz qilish xavfi mavjud bo'lgan taqdirda, advokat ushbu shaxslarning xavfsizligini ta'minlash, ularga tegishli mol-mulkni saqlab qolish uchun zarur choralarni ko'rish shart bo'lgan tegishli ichki ishlar hududiy organiga murojaat qilish huquqiga ega ekanliklari hamda advokatga nisbatan jinoiy ish faqat prokurorning qarori bilan sudning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkinligi yuqoridagi Rossiya Federatsiyasining qonunchiligida belgilab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin. Jinoiy ish bo'yicha tergov prokuratura tergovchisi tomonidan amalga oshiriladi. Qamoqqa olish, uy-joyga kirish yoki advokatning ish joylari, shaxsiy yoki foydalanadigan



transportda, u yerda qidiruv yoki olib qo'yish, advokatning shaxsiy izlanishlari, uning yozishmalarini olish, unga tegishli hujjatlar va mol-mulknini olish, unga nisbatan loyiha bo'yicha operativ-qidiruv ishlarini olib borish sudning qarori asosida amalga oshiriladi.

Yuqorida Rossiya Federatsiyasi qonunchiligidagi advokatlarning daxlsizlik huquqi bilan tanishib chiqdik. Endi ozimizning mamlakatimizdagi advokatlarning daxlsizlik huquqi bilan taqqoslab o'tamiz.

Demak, O'zbekiston Respublikasining, 1998-yil 25-dekabrda 721-I-sonli "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida" Qonunning 6-moddasida advokatning daxlsiz shaxs ekanligi, advokatning daxlsizligi uning uy-joyiga, xizmat xonasiga, foydalanishidagi transporti va aloqa vositalariga, uning xat-xabarlariga, unga tegishli ashyolar va hujjatlarga ham taalluqli ekanligi, advokatga nisbatan jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan qo'zg'atilishi mumkinligini, advokatning uy-joyi yoki xizmat xonasiga, shaxsiy yoki foydalanishidagi transportiga kirish, ularni ko'zdan kechirish, tintuv o'tkazish yoki olib qo'yish, uning telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarini eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, advokatni ko'zdan kechirish va shaxsiy tintuvdan o'tkazish, xuddi shuningdek uning pochta-telegraf jo'natmalarini, unga tegishli ashyolar va hujjatlarni ko'zdan kechirish yoki olib qo'yish, advokatni majburiy keltirish,

ushlab turish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning sanksiyasi bilan amalga oshirilishi mumkinligini, qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi advokatga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat prokurorlari, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning iltimosnomasiga ko'ra jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tomonidan qo'llanilishi mumkinligini, advokatning ish bo'yicha huquqiy nuqtai nazariga nisbatan surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqdimnoma kiritishi, shuningdek sud xususiy ajrim chiqarishi mumkin emasligini, advokatni yuridik va jismoniy shaxslarga qonunga muvofiq yuridik yordam ko'rsatganligi munosabati bilan jinoiy, moddiy va boshqa javobgarlikka tortish yoki unga shunday javobgarlikka tortish bilan tahdid qilish mumkin emasligini ko'rishimiz mumkin.

Rossiya Federatsiyasida advokatga nisbatan jinoiy ish faqat prokurorning qarori bilan sudning roziligi bilan amalga oshirilsa, bizning qonunchiligimizga ko'ra advokatga nisbatan jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan qo'zg'atilishi mumkinligini belgilab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin.

Qolaversa, qamoqqa olish, uy-joyga kirish yoki advokatning ish joylari, shaxsiy yoki foydalanadigan transportda, u yerda qidiruv yoki olib qo'yish, advokatning shaxsiy izlanishlari, uning yozishmalarini



olish, unga tegishli hujjatlar va mol-mulkni olish, unga nisbatan loyiha bo'yicha operativ-qidiruv ishlarini olib borish sudning qarori asosida amalga oshirilsa, bizning qonunchiligimizga ko'ra esa advokatning uy-joyi yoki xizmat xonasiga, shaxsiy yoki foydalanishidagi transportiga kirish, ularni ko'zdan kechirish, tintuv o'tkazish yoki olib qo'yish, uning telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarini eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, advokatni ko'zdan kechirish va shaxsiy tintuvdan o'tkazish, xuddi shuningdek uning pochta-telegraf jo'natmalarini, unga tegishli ashyolar va hujjatlarni ko'zdan kechirish yoki olib qo'yish, advokatni majburiy keltirish, ushlab turish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning sanksiyasi bilan amalga oshirilishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi advokatga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat prokurorlari, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning iltimosnomasiga ko'ra jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudi tomonidan qo'llanilishi mumkinligi kabi norma deyarli bir ekanligini ko'rishimiz mumkin. qolgan normalar deyarli bir-biridan farq qilishini ko'rib o'tdik.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasidagi ba'zi huquqshunoslar ham nega O'zbekistondagi sudlarda advokatlarning roli yo'qligiga quyidagicha izoh berib o'tgan: "Yurtimizda bosqichma-bosqich jismoniy va yuridik shaxslarning

huquqlarini himoya qilishni ta'minlash yuzasidan advokatura institutining rolini kuchaytirish, professional yuridik yordam sifatini oshirish hamda sud ishini yuritishda tenglik va tortishuv prinsiplarini to'liq ro'yobga chiqarish choralari ko'rilayotganligini, bu borada Prezidentimizning "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni dasturi asosida amalga oshirilganligini hamda Farmonga muvofiq, sud ishini yuritishda tenglik va tortishuv prinsiplarini to'liq ro'yobga chiqarish choralari ko'rish yuzasidan tegishli vazifalar belgilab berilganligini, davlat organlarining advokatura institutiga nisbatan ma'muriy ta'sir ko'rsatish holatlari tugatilganligi, shuningdek, advokatlar tomonidan ko'rsatilayotgan yuridik yordam sifatini oshirish maqsadida advokatlik faoliyatini litsenziyalash ixtisosliklar bo'yicha amalga oshirilganligini ta'kidlagan.

Bundan tashqari, qayd etish joizki, advokatlar faoliyatini tashkil etishdagi o'zgarishlar natijalari sudlar tomonidan chiqarilayotgan oqlov hukmlari chiqarilishida ham o'z aksini topmoqda. Masalan, 2018-yildagi holatga qaraydigan bo'lsak, sudlar tomonidan 867 nafar shaxsga nisbatan oqlov hukmlarining chiqarilishi va 3290 nafar shaxsning ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlangan holda sud zalidan qamoqdan ozod etilishi advokatlar tomonidan ko'rsatilayotgan yuridik yordam sifati oshayotganligini ta'kidlaydi. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunning



5-moddasiga ko'ra advokatning mustaqilligini ta'minlash turlari belgilab qo'yilgan bo'lib, ular quyidagilar:

unga qonunda belgilangan tartibda advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun ijozat berish, bu faoliyatni to'xtatib turish va tugatish;

advokatning daxlsizligi;

advokatlik sirini oshkor etishni talab qilishni man etish;

advokat olib borayotgan ishlarga aralashganlik yoxud advokatning daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik; davlat tomonidan unga advokatlik faoliyati kafolatlari berilishi hamda ijtimoiy himoyalaniishi kabilardir.

Ushbu "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasining advokatning mustaqilligini ta'minlash turlaridan advokatning daxlsizligiga to'xtaladigan bo'lsak, bunga ko'ra:

Birinchidan, advokatni yuridik va jismoniy shaxslarga qonunga muvofiq yuridik yordam ko'rsatganligi munosabati bilan jinoiy, moddiy va boshqa javobgarlikka tortish yoki unga shunday javobgarlikka tortish bilan tahdid qilish mumkin emasligini.

Ikkinchidan, advokatga nisbatan jinoyat ishi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyat, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan qo'zg'atilishi mumkinligini.

Uchinchidan, advokatning ish bo'yicha huquqiy nuqtai nazariga nisbatan surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqdimnoma kiritishi, shuningdek sud xususiy ajrim chiqarishi mumkin emasligini.

To'rtinchidan, advokatning daxlsizligi uning uy-joyiga, xizmat xonasiga, foydalanishidagi transporti va aloqa vositalariga, uning xat-xabarlariga, unga tegishli ashyolar va hujjatlarga ham taalluqliligini ko'rishimiz mumkin.

Demak, ushbu "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunimizdagi advokatning daxlsizlik huquqi xuddi Rossiya Federatsiyasining "Advokatura faoliyati to'g'risida"gi Qonunidagi advokatning daxlsiz huquqlari bir xil ekalgini yuqoridagi ma'lumotlar orqali ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-may kunidagi "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni orqali ham advokaturaing mustaqilligini ta'minlash uchun qanday chora-tadirlar amalga oshirilgaligini ko'rishimiz mumkin.

Sudyalarning mustaqilligini ta'minlash choralariga to'xtaladigan bo'lsak, sudyalarning mustaqilligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 63-moddasida belgilab qo'yilgan bo'lib, ular quyidagilardir:

ularni qonunda belgilangan tartibda lavozimga saylash, tayinlash, sudyalik vakolatlarini to'xtatib turish va tugatish;

sudyaning daxlsizligi;

odil sudlovni amalga oshirishdagi qat'iy tartib-taomil;

qarorlarni chiqarish chog'ida sudyalar maslahatlashuvining sir tutilishi va uni oshkor qilishni talab etishning taqiqlanishi; sudyaga hurmatsizlik qilganlik, odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha faoliyatga aralashganlik va sudyaning



daxlsizligini buzganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlik;

sudyaga davlat hisobidan uning yuksak maqomiga munosib moddiy va ijtimoiy ta'minot berish kabilardir.

Bundan tashqari, sudyaning mustaqilligini cheklaydigan qonunchilik hujjatlari qabul qilishga yo'l qo'yilmasligi hamda sudya, uning oila a'zolari va ularning mol-mulki davlatning alohida himoyasida bo'lishi belgilangan.

Sudyaning daxlsizligiga to'xtaladigan bo'lsak, sudyaning shaxsi daxlsiz. Sudyaning daxlsizligi uning turar joyiga, xizmat xonasiga, u foydalanadigan transport vositasi va aloqa vositalariga, xat-xabarlariga, unga tegishli ashyolar va hujjatlarga taalluqliligi hamda sudyaga nisbatan jinoyat ishi faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan qo'zg'atilishi mumkinligi belgilangan. Qolaversa, sudyaga nisbatan boshqa daxlsizlik huquqlari mavjudligini O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning tegishli moddalari orqali ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, Sudya O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining xulosasi olinmasdan va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi mumkin emas. Sudya tegishli sudyalar malaka hay'atining xulosasi olinmasdan ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi raisining sudyalar daxlsizligini buzganlik va ularning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashganlik faktlari to'g'risidagi taqdimnomasi prokuratura organlari tomonidan bir oy muddatda ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi ko'rsatilgan faktlar bo'yicha

jinoyat ishi qo'zg'atilganligi yoki qo'zg'atilishi rad etilganligi haqida O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashiga xabar beradi.

Sudyani huquqni muhofaza qiluvchi organlarga guvoh yoki gumon qilinuvchi sifatida so'roq qilish uchun chaqirishga faqat tegishli sudyalar malaka hay'atining roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Sudyaga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi faqat unga nisbatan o'ta og'ir jinoyat yoki odam o'limiga sabab bo'lgan qasddan boshqa jinoyat sodir etganlikda ayb qo'yilgan hollarda qo'llanilishi mumkin. Mazkur qoida sudya sifatida ishlagan davrida shunday jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan sobiq sudyaga nisbatan ham qo'llaniladi. Sudya huquqbuzarlik sodir etganlikda gumon qilinib ushlab turilgan taqdirda, bu haqda ushlab turish uchun asos bo'lgan hujjatlar ko'chirma nusxalari ilova qilingan holda O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashiga u ushlangan paytdan e'tiboran uch soatdan kechiktirmasdan xabar qilinishi shart. Sudyaning turar joyiga yoki xizmat xonasiga, foydalanadigan transportiga kirish, ularni ko'zdan kechirish, ularda tintuv o'tkazish yoki ulardan ashyoni olish, uning telefondagi so'zlashuvlarini eshitish, sudyani shaxsan ko'zdan kechirish va uni shaxsiy tintuv qilish, shuningdek uning xat-xabarlarini, unga tegishli ashyolar va hujjatlarni ko'zdan kechirish, olib qo'yish yoxud olish faqat sudning qaroriga binoan yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin.

Takliflarim:

Birinchidan, Advokatlarga ham sudyalarga berilgan daxlsizlik huquqi bo'lmish, advokatga hurmatsizlik qilganlik, adolatli



ishni amalga oshirish bo'yicha faoliyatga aralashganlik va advokatning daxlsizligini buzganlik og'irroq javobgarlik masalasini kiritilishini;

Ikkinchidan, Advokat O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining xulosasi olinmasdan va roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi mumkin emasligini;

Uchinchidan, Advokat Oliy malaka va malaka komissiyalarining tegishli xulosasi olinmasdan ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emasligini;

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi raisining advokatlar daxlsizligini buzganlik va ularning adolatli ishni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashganligi uchun ariza bilan Bosh prokuratura organiga murojaat qilishi mumkinligini;

Beshinchidan, Advokatga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi yoki litseziyasini bekor qilish faqat unga nisbatan o'ta og'ir jinoyat yoki odam o'limiga sabab bo'lgan qasddan boshqa jinoyat sodir etganlikda ayb qo'yilgan hollarda qo'llanilishini;

Oltinchidan, Advokatga nisbatan jinoyat ishini qo'zg'atish yoki uning turar joyiga yoki xizmat xonasiga, foydalanadigan transportiga kirish, ularni ko'zdan kechirish, ularda tintuv o'tkazish yoki ulardan ashyoni olish, uning telefondagi so'zlashuvlarini eshitish, sudyani shaxsan ko'zdan kechirish va uni shaxsiy tintuv qilish, shuningdek uning xat-xabarlarini, unga tegishli ashyolar va hujjatlarni ko'zdan kechirish, olib qo'yish yoxud olish

faqat sudning qaroriga binoan yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining ruxsati bilan amalga oshirilishini;

Yettinchidan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksining 223-moddasida ushlab chog'ida immunitet huquqidan foydalanuvchi shaxslar sirasiga aynan advokatlarni ham kiritish kerakligini (Deputatlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil, sudyalari va prokurorlar ushlab turilishi hamda ichki ishlar organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib kelinishi mumkin emas. Mazkur taqiq ushbu Kodeks 221-moddasining 1-bandida nazarda tutilgan ushlab turish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi) qonunchiligimizga kiritish lozim deb baholayman.

Sakkizinchidan, bilamizki, bizning qonunchilikda Sudya tegishli sudyalari malaka hay'atining xulosasi olinmasdan ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. Shu normani advokatlarga nisbatan ham qo'llasak qanday bo'ladi. masalan, advokat tegishligi advokatlar hududiy boshqarmasining xulosasini olmasdan turib ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin emas degan normani qo'shib qo'ysak qanday bo'ladi?

References:

1. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabr, 349-I-sonli "Advokatura to'g'risida" gi Qonun.



2. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabr 721-I-sonli "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida" gi Qonun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-may kunidagi "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmon.
4. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonun.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi.